

**“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC
INNOVATIVE RESEARCH”**

Volume 11. November 2024

PSIXOLOGIK XIZMATNING KASBIY FAOLIYATDA TUTGAN O’RNI

**University of Business and Sciense
Pedagogika va psixologiya yo’nalishi 4 kurs talabasi
Axmedova Zilola Ulug’bek qizi
tel: +99890 627 13 86**

Annotatsiya. Maqolada bugungi globallashuv davrida shaxslarning sog’lom va barkamol bo’lib kamol topishlarida Psixologik kasbiy faoliyatda tutgan o’rni haqida bayon qilinadi. Shuningdek, aholining psixologlarga, psixologik markazlarga bo’lgan ishonchini oshirish, turli sohalarning rivojlanishida psixologik xizmatning nechog’lik muhimligi haqida bayon qilinadi.

Kalit so’zlar: psixolog, fikr, munosabat, umumiyl psixologiya, ijtimoiy psixologiya, psixologik konsultatsiya, dunyoqarash, amaliy psixologiya, psixologik xizmat, mutaxassis.

**РОЛЬ ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ СЛУЖБЫ В ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ
ДЕЯТЕЛЬНОСТИ**

Абстрактный. В статье описывается роль психологической профессиональной деятельности в развитии здоровой и зрелой личности в современный период глобализации. Также объясняется, насколько важны психологические услуги в развитии различных сфер, повышении доверия населения к психологам и психологическим центрам.

Ключевые слова: психолог, мысль, отношение, общая психология, социальная психология, психологическое консультирование, мировоззрение, прикладная психология, психологическая служба, специалист.

**THE ROLE OF PSYCHOLOGICAL SERVICE IN PROFESSIONAL
ACTIVITY**

Abstract. The article describes the role of psychological professional activity in the development of healthy and mature individuals in today's globalization period. It is also explained how important psychological services are in the development of various fields, increasing the trust of the population in psychologists and psychological centers.

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Volume 11. November 2024

Keywords: psychologist, thought, attitude, general psychology, social psychology, psychological consultation, outlook, practical psychology, psychological service, specialist.

KIRISH So'ngi yillarda jahon psixologiyasida psixologik xizmatni tashkil etish muammosini o'rghanishga alohida tadqiqot yo'naliishi sifatida e'tibor qaratilmoqda. Hozirgacha psixologik tadqiqotlarda pedagog psixolog shaxsning har tomonlama rivojlanishi uchun qo'lidan kelgan barcha ishlarni qilishi, ijtimoiy psixologik xizmat va uning o'ziga xos xususiyatlari o'rghanilgan. Mazkur yo'naliishda psixologik xizmatni tashkil etishning turli usullari va zamonaviy texnologiyalarini ifodalovchi zamonaviy psixologik mexanizmlarni qo'llash hamda joriy etish masalasining muhimligiga e'tibor qaratilmoqda. Ayni vaqtida psixologik xizmatni tashkil etish personallardagi muammolarni bartaraf etish kabi holatlar dolzarb muammolar sifatida qaralmoqda. Bugungi kunda ta'lim tizimlarida psixologik xizmatni joriy etish borasida olib borilayotgan qator nazariy-ilmiy va amali –uslubiy ishlar psixologik xizmatni joriy etish va rivojlantirish uchun ma'lum darajada asos bo'lmoqda. Ayni paytda psixologik xizmat tizimining bugungi holati va amaliy faoliyat yo'naliishlarini har tomonlama, chuqur tahlil qiluvchi va shu tahlillar asosida psixologik xizmatning istiqbollarini o'chib beruvchi maxsus tadqiqotlarning taqchilligi nihoyatda dolzarb muammo bo'lib qolmoqda. Tabiiyki, mazkur muammoni bartaraf etish uchun mamlakatimizda psixologik xizmatning joriy etilishi, bugungi holati va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish istiqbollarini o'rghanishga, tahlil qilishga va izohlashga bag'ishlangan psixologik va ijtimoiy psixologik tadqiqotlarning olib borilishi davr taqozosidir. Shundan kelib chiqqan holda, bugungi ta'lim muassassalarida, mehnat jamoalarida bo'lajak kadrlarni har jihatdan tayyorlash bilan bog'liq psixologik tadqiqotlarning ilmiy-tashkiliy jihatlariga va ayniqsa, ijtimoiy psixolgik muhofaza imkoniyatlarini tadqiq qilishga oid maxsus o'tkazilgan tadqiqotlarnig sust ekanligi; ijtimoiy psixologiya, psixologik konsultatsiya fanlarining zamonaviy yo'naliishlari fanlarida bugungi psixologik xizmat tatbiqini qamrab oluvchi vazifalarning aniq va bat afsil belgilanmaganligini, ta'lim va mehnat muassassalarida tashkil etilgan psixologik xizmat tajribalari misolida o'quvchi va ishchi xodimlar muvaffaqiyatli –faoliyatni ta'minlashdagi ijtimoiy psixologik muhofaza imkoniyatlarini o'rghanish va kamol toptirish bilan bog'liq bugungi O'zbekistonning o'z istiqlol va istiqbol yo'li, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti talablariga javob beruvchi ilmiy-amaliy tavsiyalarning ishlab chiqilmaganligi kabilarni bugungi kunda dolzarb

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Volume 11. November 2024

muammolardan biri sifatida qayd etish mumkin.Psixologik xizmatning muvaffaqiyatli tashkil etilishi uchun muhim nazariy-ilmiy ahamiyat kasb etuvchi ijtimoiy psixologik vazifalarini aniqlashga qaratilgan tadqiqotlarni G.M.Andreeva, M.G.Davletshin,Yu.M.Zabrodin, D.Karnegi, V.M.Karimova, B.D.Parigin, G'.B.Shoumarov, E.G'.G'oziyev va boshqalar olib borishgan.

TADQIQOT MATERIALLARI VA METODOLOGIYASI Bugungi psixologiya-fani ta va ijtimoiy taraqqiyoti an'analari bilan bog'liq insonning amaliy psixologiyasini,uning jamiyatdagi ijtimoiy faolligi va ijtimoiy tabiatidan ajratib bo'lmaydi.Shu nuqtai nazardan,inson omillarini va uning jamiyatdagi ijtimoiy jarayonlarini to'g'ri va samarali boshqarish jarayoni jamiyatga va jamiyat a'zolariga psixologik xizmat ko'rsatish muqarrarligini talab qiladi. Bu borada iqtisod, huquq, etika, etnografiya, tarix, sotsiologiya va shu kabi barcha fanlarning o'zaro mustahkam hamkorligi natijasida inson psixologiyasining amaliy muammolari hal etilishi lozim. Psixologik xizmat metodologiyasi esa ko'proq birinichi yo'nalish „psixologik ijtimoy psixologiya” asoslari zaminida tarkib toptiriladi.

TADQIQOT NATIJALARI Olimlar psixolgik xizmatni yanada rivojlantirish uchun turlicha metodlar va metodologiyalarni yaratib kelmoqdalar. K.K.Platonovning psixologik xizmat bilan bog'liq ijtimoiy psixologiya metodologiyasini yaratishdagi xizmati shundaki, ijtimoiy-psixologik individuallik muammosini inson individual olami namoyon bo'lishining eng yuqori darajasi sifatida tadqiq qildi va psixologik xizmat mohiyatini tasavvur qilish uchun muhim bo'lgan shaxsni nafaqat o'zining,balki bu individual xususiyatlaning ijtimoiy mazmuni o'zini-o'zi adekvat baholash va rivojlantirishga asoslangan shart-sharoitlarni yaratish billan kamol toptirish muqarrarligini ilmiy jihatdan asoslab berdi. Professorlar E.G'oziyev, I.Tursunov, J.Ikromovlarning “XX asr va shaxs kamoloti” mavzusidagi ma'lumotlarida ham psixologik xizmat ko'rsatishda muhim ahamiyat kasb etuvchi individ,shaxs va sub'ekt taraqqiyotining tadqiqotida quyidagi holatlarga e'tibor berish zarurligi uqtiriladi: -inson rivojlanishining determinatori hisoblangan asosiy omillar va shart-sharoitlar (ijtimoiy,iqtisodiy,siyosiy,huquqiy,mafkuraviy,pedagogik va yashash muhiti omilari); -insonning o'ziga taalluqli,asosiy tafsilotlar,uning ichki qonuniyatları,mexanizmları,e'tiqod bosqichlari barqarorlashuvi va involyutsiya; -inson yaxlit tuzilishining asosiy tarkiblari.ularning o'zaro aloqalari,shaxsning tashqi ta'sirlarga javobi va munosabati,taraqqiyot jarayonida ularning takomillashuvi (Xalq ta'limi,NS).

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Volume 11. November 2024

MUHOKAMA Darhaqiqat har bir insonning o’z individual olamida sodir etilayotgan barcha ma’naviy va ruhiy kechinmalarini u yashab urgan jamiyat istiqbollariga mos tarzda tadqiq qilmay turib shaxs va faoliyat,shaxs va jamiyat,shaxs va individuallik o’rtasidagi ijtimoiy mutanosiblikni ta’minlab bo’lmaydi.Zero,psixologik muhofaza vositasi sifatida tadqiq qilinayotgan ijtimoiy psixologik himoya falasafasi ham shuni taqozo etmoqda.

XULOSA Bugungi psixologik xizmatning qulay va shaxs kamoloti uchun nihoyatda ahamiyatli tomonlari barchaga ma’qul va manzur bo’lgan. Lekin psixologik xizmatning keng targ’ibot qilinishi uchun yuqorida maxsus rasmiy farmoyishning va amaliyotchi psixologlarning nihoyatda taqchilligi yoppasiga barcha maktablarda xuddi shunday psixologik xizmatni tatbiq etish ishiga birmuncha to’sqinlik qilib kelar edi.1990-yillarga kelib mustaqillik, erk, o’zlikni anglash hislari hukmron bo’lgan O’zbekiston sharoitida inson va jamiyat kamolotini ko’zlovchi barcha ijtimoiy sohalar singari psiixoloogik xizmat tatbiqining keng quloch yoyishi uchun ham o’ziga xos zamin hozirlandi. Bu esa O’zbekiston uchun xarakterli bo’lgan psixologik xizmat rivojlantirilishining navbatdagi amaliyotchi-psixologlar tayyorlash bosqichiga o’tishni muqarrar qilib qo’ydi. Chunki maktabdagagi ijtimoiy-psixologik iqlimni tahlil qila oluvchi malakali amaliyotchi-psixologlar tayyorlamay turib,O’zbekistonda psixologik xizmat tatbiqini muvaffaqiyatli amalga oshirib bo’lmas ekan. Shunga muvofiq dastavval Toshkentda, so’ngra Buxoroda, keyinchalik Navoiy, Andijon,Samarqand va boshqa viloyatlarda umumta’lim maktablari uchun “Amaliyotchi-psixologlar” mutaxassisligi bo’yicha qayta tayyorlov kurslari ochildi va bu kurslarni muvaffaqiyatli tugatganlar Respublikamizning talaygina maktablarida psixologik xizmat tashkilotchisi, targ’ibotchisi va tadqiqotchisi samarali ish olib bormoqdalar. Psixologik xizmat qanchalik yaxshi yo’lga qo’yilsa,insonlarda uchraydigan turli ruhiy holatlar ham shunchalik oson korreksiya qilinadi.Insonlar o’z hayotida uchraydigan muammolarni bartaraf qilishni o’rganadilar.

REFERENCES

1. Karimov I.A Biznining bosh maqsadimiz-jamiyatni demokratlashtirish va yangilash,mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir.T.: „O’zbekiston”,2005.96-bet.
2. Andreeva G.M.Sotsialnaya psixologiya.Uchebnik.-M.:Aspekt Press,1999.376-bet.
3. G’oziyev E.G’ Umumiyy psixologiya.Toshkent.2007.1-2-kitob.
4. G’oziyev E.G’,Toshimov R.Menejment psixologiyasi.T-2002
5. G’oziyev E.G Muomala psixologysi.T-2001

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Volume 11. November 2024

6. Karimova V.M . Mustaqil fikrlash . -T.:Universitet,2002.-96-bet
7. Karimova V.M.Mustaqil fikrlash.-T.:Sharq.2000.-112-bet
8. Karimova V.M,Sunnatova „Mustaqil fikrlash”o’quv qo’lanmasi bo’yicha mashg’ulotlarni tark etish uslubiyoti.-T.:Sharq,2000.-16-bet
9. Mayers D.Sotsialanaya psixologiya perev.S angl.-SPB.:,,Piter”,199-bet

10. Yakubjonovna, N. M., & Shamsitdinovna, M. A. (2024). BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI PEDAGOGIK KOMPETENTLIK SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK USULLARI. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 47(3), 105-110.

11. Yakubjonovna, N. M., & Farhod og’li, X. A. (2024). YOSH AVLODNI TARBIYALASHDA OILA, MAHALLA VA MAKTAB HAMKORLIGIDA O'QITUVCHINING KASBIY KOMPETENTLIGINI OSHIRISH. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 47(3), 149-153.

12. Jurayev, X. O. (2023). O ‘smirlarda xarakter aksentuatsiyasi tiplarining deviand xulq-atvor shakllanishiga ta’sirining psixologik mexanizmlari. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(9), 560-569.

**Research Science and
Innovation House**